

BO'LAJAK HARBIY XIZMATCHLARNING MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYASIDA RIVOYAT VA O'GITLARNING AHAMIYATI

F.Z. Umarova

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada yoshlarga ta'lif va tarbiya berishda rivoyat, afsona va asotirlarning ahamiyati, kattalar ibrati, ham jismoniy, ham ma'naviy salomatlik masalalari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, yoshlarning ona-Vatanga muhabbatini va fidoyiligin oshirish yo'llari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ta'lif, tarbiya, rivoyat, fidoyilik.

Odamzod paydo bo'libdiki, u doim yangilik, rivojlanish, takomillashishni o'ylab, shunga intilib yashaydi. Jamiyatning rivojlanishida esa yoshlarning roli beqiyosdir. Zotan, shuning uchun ham ta'lif-tarbiya masalasi bizning diyorimizda, shubhasiz, azaldan birlamchi o'rinda turgan. Yoshlar masalasi, ta'lif-tarbiya, ta'lif sifatini ta'minlash kabi masalalar davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biridir. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekistonda 1997-yildan boshlab har bir yilga shu davr ichida taraqqiyotning muhim yo'naliishlarini ifoda etadigan nom berish an'anaga aylangan. 2021-yilning "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb, 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lif yili" deb, 2024-yilning esa "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi hukumatimiz va, xususan, davlat rahbari tomonidan ushbu masalaga nechog'lik katta e'tibor qaratilayotganini namoyish etadi. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Eng katta boylik bu — aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu — yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu — bilimsizlikdir. Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lif va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lif tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" [1].

Yosh avlodning ham jismonan, ham ma'nan sog'lom, baquvvat bo'lib voyaga yetishida, ularni oilaviy hayot va professional faoliyatga tayyorlashda ta'lif-tarbiya mazmuni, jarayonning borishi muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, sodiqlik ruhida tarbiyalash, turli muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llarini topish, muloqot qilish va o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda ajdodlarimiz o'gitlari, maqol-matallar, ibratli hikoyat va rivoyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sharqning buyuk allomalaridan meros qolgan "Bizning kamroq gapirishimiz uchun bitta til va ko'proq tinglashimiz uchun ikkita qulqoq berilgan", "Qulog'ing bilan

eshitganingga emas, ko‘zing bilan ko‘rganingga ishon”, “Onasini ko‘r-u, qizini ol”, “Daraxt bir yerda ko‘karadi”, “To‘g‘ri o‘sigan gul bo‘lar”, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, “Oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi, og‘ziga kelganni demoq nodonning ishi” kabi umriboqiy hikmatlar, xalq maqollari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda beqiyos xizmat qiladi. Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” kitobida [2] keltirilgan tut haqidagi, bir yilda bir marta ilonga aylanib, zaxrini sochib keladigan ayol haqidagi, suvda oqib kelgan olmalarni beruxsat olgan yigitning sabr-toqati uchun mukofot qilib berilgan dono qiz haqidagi rivoyatlarni o‘rganib, sabrning tagi sariq oltinligi, yetti o‘lchab bir kesish lozimligi, hayotda oyning o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi yorug‘ ekanligi yuzasidan xulosa chiqarish mumkin. Bu haqida davlatimiz rahbari shunday deydi: “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak” [1].

Bugungi kunda tarbiyaviy ishlarni nafaqat auditoriyadan tashqari tadbirlarda, balki mashg‘ulotlarning o‘zida faollashtirish talab qilinadi. Buning uchun ko‘pgina pedagoglar kichik guruhlarda ishslash metodini qo‘llaydilar. Kursantlarni jinsiga ko‘ra qizlar va o‘g‘il bolalar guruuhlariga ajratib, “Mening kelajagim”, “Oiladagi vazifalarim”, “Mening kasbim afzalliklari”, “Ibratga loyiq qiz/o‘g‘il bola” kabi mavzularni muhokama qilish yo‘li bilan yoshlarning oilaviy hayotga, oiladagi vazifalariga munosabatini bilsa bo‘ladi. Yashash joyiga ko‘ra guruuhlarga ajratib, tegishli vazifalar yuklatish kursantlarning Vatan, oila, mahalla haqidagi tushunchalarini aniqlash, milliy va oilaviy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish imkonini beradi. Bizning Vatanimiz tarixini yaxshi bilishimiz, o‘zimiz istiqomat qilayotgan hududning kelib chiqishi, nomlanishi tarixi, aholisi, yurt taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasini o‘rganishimiz foydadan xoli bo‘lmaydi.

Yoshlar tarbiyasi haqida qayg‘urish buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini singdirishnigina anglatmaydi. Har bir o‘g‘il-qiz allomalarga o‘xshashga intilsin, shunga xohish bo‘lsin. Bo‘lg‘usi ofitser sifatida ular ham ulug‘ bobokalonlarimizning dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasini anglagan holda, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, yurtimiz tarixi, xalqimizning madaniyati, urf-odatlarini o‘rganib, o‘z hayotlariga tadbiq etishi, millatlararo do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga intilishi talab etiladi. Zero, o‘tmishsiz kelajak yo‘q. Ildizi mustahkam bo‘lgan daraxtlar ham ko‘p yil yashaydi, ham katta soya beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil, 30-sentabr. <https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/reports/211>

2. Avloniy Abdulla. To‘g‘rilik. “Birinchi muallim” kitobidan. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/4874>
3. Умарова Ф. З. *Развитие личности учащегося—залог обеспечения устойчивого развития //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития.* – 2011. – №. 9. – С. 644-645.
4. Умарова Ф. З. *КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ—ВАЖНОЕ ПРЕИМУЩЕСТВО БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 28. – С. 429-434.
5. Эркаев, Э. Т. (2019). Особенности метода переводов при обучения иностранным языкам. In *Методика преподавания иностранных языков и РКИ: традиции и инновации* (pp. 414-420).
6. Эркаев, Э. Т. (2023). ЧЕТ ТИЛНИ МУЛОҚОТ АСПЕКТИ СИФАТИДА ЎРГАТИШДА МУСТАҚИЛ ЁНДАШУВ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(19), 288-292.
7. Магдиева, С. С., Матенова, Ю. У., & Латипов, О. Ж. (2012). *Методика преподавания русского языка в АЛ и ПК*. Учебное пособие.
8. Tlyavgulov, I. R., Latypov, O., & Tusenkov, A. (2011). Redistribution of electrostatic charge in stabilization of oil-water emulsion. In *Oil and Gas Horizons–2011: The Third International Student Scientific and Practical Conference/Gubkin Russian State University of Oil and Gas, Russia* (p. 54).
9. Djabarovna, S. N. (2021). Synonymous pairs of lexical units. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 910-913.
10. Shirinova, N. D., & Shirinova, N. D. L. P. H. DOI//ORIENSS. 2023 № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lisoniy-parallelizm-hodisasiga-doir> (дата обращения: 10.10. 2023).
11. Ikanova, L. S. (2019). The impact of materials development, critical pedagogy and lgbt’s issue on the language planning and policy. *Вестник педагогики: наука и практика*, (48), 68-70.
12. Ikanova, L. S. Q. (2024). SUDLANGAN SHAXSLAR VA MAHKUMLARNING XULQ ATVORI VA QAYTA JINOYAT SODIR ETISHINI BARTARAF QILISHDA TA’LIMNING TA’SIRI (AQSH TAJRIBASI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 433-439.